

## BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINI O‘QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLARNI AHAMIYATI

**Qoraboyeva Nargiza Xursanaliyevna**

*Toshkent shahar Mirobod tumani*

*213- maktabning boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi.*

*@nargizaqoraboyeva8728*

*ORCID: 0009-0005-3520-6863*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qitishda innovatsion yondashuvlarning ahamiyati yoritilgan. Unda ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya vositalari, interfaol metodlar hamda o‘quvchini markazga qo‘ygan yondashuvlarning qo‘llanilishi orqali o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshirish, mustaqil fikrlash va ijodiy faoliyatga yo‘naltirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, innovatsion metodlarning samaradorligi misollar asosida ko‘rsatilib, boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishdagi o‘rni ochib berilgan.

Shuningdek, ushbu maqolada ta’lim jarayonida ilg‘or pedagogik texnologiyalarni faol qo‘llash haqida, Bolalarning o‘qishga munosabatlari, aqliy salohiyatlarini shakllantirish haqida, boshlang‘ich ta’lim darslarida zamonaviy texnologiyalardan foydalanib dars o‘tishni tashkil qilish haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** boshlang‘ich ta’lim, innovatsion yondashuv, pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, zamonaviy ta’lim, AKT, o‘quv jarayoni, ijodkorlik, motivatsiya, samaradorlik.

**Аннотация.** В данной статье подчеркивается важность инновационных подходов к обучению младших школьников. В нем анализируются возможности повышения интереса учащихся к обучению, направления их на самостоятельное мышление и творческую деятельность посредством использования современных педагогических технологий, информационно-коммуникационных средств, интерактивных методов и личностно-ориентированных подходов в образовательном процессе. Также на примерах демонстрируется эффективность инновационных методов, раскрывающих их роль в повышении качества начального образования.

В данной статье также рассматриваются вопросы активного использования передовых педагогических технологий в образовании, отношения детей к обучению, формирования их умственного потенциала, организации занятий в начальном образовании с использованием современных технологий.

**Ключевые слова:** начальное образование, инновационный подход, педагогические технологии, интерактивные методы, современное образование, ИКТ, образовательный процесс, креативность, мотивация, эффективность.

**Annotation.** This article highlights the importance of innovative approaches to teaching primary school students. It analyzes the possibilities of increasing students' interest in learning, directing them to independent thinking and creative activities through the use of modern pedagogical technologies, information and communication tools, interactive methods and student-centered approaches in the educational process. Also, the effectiveness of innovative methods is demonstrated on the basis of examples, revealing their role in improving the quality of primary education.

This article also deals with the active use of advanced pedagogical technologies in education, the attitude of children to learning, the formation of their mental potential, the organization of classes in primary education using modern technologies.

**Key words:** primary education, innovative approach, pedagogical technologies, interactive methods, modern education, ICT, the educational process, creativity, motivation, effectiveness.

## **KIRISH**

XXI asrda ta'lim sohasi tubdan o'zgarishlarga yuz tutmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining barcha jabhalarga, xususan, o'quv jarayoniga keng kirib kelishi, jamiyat ehtiyojlarining o'zgarib borishi ta'lim tizimidan yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda. Shu bois, an'anaviy dars berish uslublari bugungi kunda o'z dolzarbligini yo'qotmoqda, ular o'rnini esa innovatsion, o'quvchiga yo'naltirilgan pedagogik metodlar egallamoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi — ta'lim tizimining asosiy bo'g'ini sifatida — o'quvchining intellektual va shaxsiy jihatdan shakllanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar va texnologiyalarning qo'llanilishi ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning bilimga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish, mustaqil fikrlashga undashda muhim ahamiyat kasb etadi. Endilikda o'qituvchi dars jarayonining yagona manbai emas, balki boshqaruvchi va yo'naltiruvchi sifatida maydonga chiqadi. O'quvchilar esa passiv tinglovchilardan faol ishtirokchilarga aylanadilar. Shu tarzda tashkil etilgan ta'lim jarayoni bolalarda muloqot madaniyati, muammolarni hal etish ko'nikmalari, mustaqil qaror qabul qilish kabi kompetensiyalarni rivojlantiradi.

Innovatsion faoliyatning ta'lim jarayonida ustuvor yo'nalish sifatida e'tirof etilishi, ayniqsa, boshlang'ich ta'limda alohida o'rin tutadi. Chunki bu bosqichda bola nafaqat bilim oladi, balki ijtimoiy muhitga moslashadi, o'zining shaxsiy salohiyatini namoyon qila boshlaydi. Shuning uchun boshlang'ich sinf o'qituvchilari nafaqat bilim beruvchilar, balki bolalarning xarakteri va dunyoqarashini shakllantiruvchi

murabbiylar hisoblanadi. Ularning zimmasidagi vazifa murakkab va mas’uliyatlidir — ular maktabga ilk bor qadam qo‘ygan o‘quvchilarning ta’limga bo‘lgan munosabatini belgilab, ularni yangi bilimlar sari yetaklashlari kerak.

Innovatsion yondashuvlar deganda ta’lim jarayonida yangi, ilg‘or va samarali pedagogik texnologiyalarni, metod va vositalarni qo‘llash tushuniladi. Bu yondashuvlar o‘quvchining mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi va faol ishtirokini ta’minlashga qaratilgan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan ishlashda bu yondashuvlar o‘ziga xos bo‘lishi lozim, chunki bu yoshdagi bolalar uchun o‘yin, tasviriy vositalar, harakat, muloqot kabi elementlar katta ahamiyatga ega.

### **MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI**

Yo‘ldoshev Q.Q. “Pedagogik texnologiyalar asoslari. Ushbu manbada innovatsion pedagogik texnologiyalarning nazariy asoslari, ularning turlari va amaliyotga tadbiqui keng yoritilgan. Muallif interfaol metodlar, modul asosida o‘qitish, differensial yondashuv va loyiha metodikasini ta’limda qo‘llash bo‘yicha aniq tavsiyalar beradi. Asar boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Soliyeva D., “Boshlang‘ich ta’limda interfaol metodlardan foydalanish”. Kitobda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining psixologik xususiyatlari inobatga olingan holda interfaol metodlardan foydalanish usullari yoritilgan. Ayniqsa, o‘yin metodlari, jamoaviy faoliyat, guruhli ishlar orqali o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlash haqida amaliy misollar keltirilgan.

Vygotsky L.S., “Bolalar psixologiyasi”. Vygotskiy o‘zining ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasi orqali ta’lim jarayonida bolaning yaqin rivojlanish zonasi tushunchasini ilgari surgan. Bu nazariya asosida boshlang‘ich sinfda differensial va individual yondashuvning ahamiyati asoslanadi. Innovatsion metodlar aynan shu tamoyillarga tayangan holda ishlab chiqiladi.

Marxamatova M.T. “Zamonaviy darsni loyihalash”. Muallif darsni zamonaviy texnologiyalar asosida rejalashtirish, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish, AKT asosida interaktiv dars tashkil etish bo‘yicha konseptual fikrlar bildirgan. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun dars stsenariylari misolida metodik yondashuv ko‘rsatib berilgan.

UNESCO hisobotlari va xalqaro tajriba (masalan, “Global Education Monitoring Report”). Bu manbalarda butun dunyo miqyosida boshlang‘ich ta’limda innovatsion texnologiyalarni joriy qilishning samarali tajribalari, AKTga asoslangan o‘qitish metodikasi va ilg‘or mamlakatlar tajribalari bayon etilgan. Bular O‘zbekiston ta’lim tizimiga moslashtirish imkoniyatlarini ham ochib beradi.[2; 456,462-b]

Tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, innovatsion yondashuvlar nafaqat yangi metod va vositalardan iborat, balki o‘quvchilarning shaxsiy xususiyatlari, rivojlanish bosqichlari va ta’limga bo‘lgan qiziqishiga qarab moslashtirilgan

yondashuvlarni anglatadi. Ushbu adabiyotlar nazariy va amaliy jihatdan o‘qituvchilar uchun boy metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Singapur ta‘lim tizimida innovatsion faoliyatga alohida e‘tibor qaratilib, o‘qituvchilar uchun maxsus trening va seminarlar tashkil qilinadi. Finlandiyada esa ta‘lim jarayonida mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvga urg‘u beriladi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining innovatsion faoliyatini kompleks va adolatli baholash maqsadida bir nechta muhim mezonlarga tayanish zarur. Avvalo, pedagogik samaradorlik o‘qituvchining ta‘lim berish jarayonidagi muvaffaqiyatini aks ettiradi; bu, ayniqsa, o‘quvchilarda bilim, ko‘nikma va malakalarning qanchalik shakllanganini aniqlash orqali o‘lchanadi. Shuningdek, psixologik moslashuvchanlik ham muhim omil bo‘lib, o‘quvchilarning ta‘lim muhitiga tez va samarali moslashuv darajasi orqali aniqlanadi.

Yana bir dolzarb jihat – bu o‘qituvchining ijodkorlik darajasi (kreativligi) bo‘lib, u yangi metodlarni qo‘llashga tayyorlik, noan‘anaviy yechimlar topish qobiliyati va moslashuvchan didaktik yondashuvlar bilan bog‘liq. Shu bilan birga, zamonaviy ta‘lim raqamli texnologiyalarni o‘zlashtirishni talab qilayotganini inobatga olib, texnologik savodxonlik – ya‘ni o‘qituvchining axborot-kommunikatsiya vositalaridan samarali foydalanish qobiliyati ham asosiy baholash mezonlaridan biri hisoblanadi.

Bundan tashqari, tahlil qilish qobiliyati o‘qituvchining o‘z faoliyati natijalarini chuqur tahlil qila olishini, o‘quvchilarning o‘zlashtirish holatini baholash orqali ta‘lim jarayonini takomillashtirishga bo‘lgan layoqatini anglatadi. Misol tariqasida, AQShda bu kabi innovatsion yondashuvlarni baholashda maxsus kuzatuv jadvallaridan foydalaniladi. Ushbu jadvallar orqali o‘qituvchilarning ijodiy tashabbuslari, interaktiv metodlardan foydalanish holati va ta‘lim samaradorligi tizimli ravishda tahlil qilinadi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun innovatsion faoliyatda raqamli texnologiyalarni qo‘llash ta‘lim sifati va samaradorligini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Bu texnologiyalar orqali dars jarayonini yanada interaktiv va o‘quvchi uchun qiziqarli qilish mumkin. Jumladan, interfaol doskalar darsni vizual jihatdan boyitadi, bolalarda faollik va qiziqishni oshiradi. Shu orqali o‘quvchilar mavzuni chuqurroq o‘zlashtirishga intiladilar.

Shuningdek, elektron darsliklar yordamida har bir o‘quvchining individual o‘zlashtirish darajasini hisobga olgan holda, moslashtirilgan o‘qitish metodlari qo‘llanilishi mumkin. Bu esa shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni amalga oshirishda qulaylik yaratadi.

Zamonaviy onlayn ta‘lim platformalari, masalan, Google Classroom, Zoom yoki Edmodo orqali darslarni tashkil qilish, topshiriqlarni berish, nazorat qilish va fikr almashish jarayonlari soddalashtiriladi hamda tartibga solinadi. Ushbu tizimlar orqali

o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida doimiy aloqani ta‘minlash imkoniyati yuzaga keladi.

Misol sifatida, Janubiy Koreya tajribasini keltirish mumkin: bu davlatda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan maxsus onlayn platformalar ishlab chiqilgan bo‘lib, ular yordamida bolalarning rivojlanish ko‘rsatkichlari muntazam ravishda kuzatib boriladi, ularning qobiliyat va ehtiyojlariga mos ravishda individual yondashuv amalga oshiriladi. [4; 345,358-b]

### **TAHLIL VA NATIJALAR**

Boshlang‘ich ta‘limda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan innovatsion metodlar

Boshlang‘ich ta‘lim bosqichida innovatsion yondashuvlardan foydalanish o‘quvchilarning bilim olish jarayonini yanada faol va mazmunli qilish imkonini beradi. Bu borada bir nechta samarali yondashuvlar ajralib turadi.

Birinchidan, interfaol metodlar orqali o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, jamoada ishlash va o‘z fikrini aniq ifoda etish ko‘nikmalari shakllanadi. Masalan, “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Blits-so‘rov”, “Rol o‘ynash” kabi metodlar o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi va ularning muloqot qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Ikkinchidan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanish o‘quvchilarning diqqatini jalb qilishda va murakkab mavzularni soddalashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Multimedia vositalari, interfaol doskalar va turli ta‘limiy dasturlar orqali darslar yanada jonli va tushunarli bo‘ladi.

Uchinchidan, loyiha asosida o‘qitish metodi kichik yoshdagi o‘quvchilarni izlanishga va amaliy faoliyatga jalb etadi. Ular kichik loyihalar orqali savol berish, kuzatish, tadqiqot o‘tkazish va natija chiqarish kabi muhim ko‘nikmalarni o‘zlashtiradilar.

To‘rtinchidan, integratsiyalashgan darslar orqali turli fanlardan olingan bilimlar o‘zaro bog‘lanadi va o‘quvchilarda atrof-muhit haqidagi yaxlit tasavvur shakllanadi. Bu esa bilimlarning hayotiy ahamiyatini tushunishga yordam beradi.

Umuman olganda, innovatsion yondashuvlarning eng katta ustunligi shundaki, ular o‘quvchini passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi. Bunday yondashuvlar quyidagi afzalliklarga ega:

- O‘quvchining individual qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga oladi;
- Ta‘limga bo‘lgan motivatsiyani oshiradi;
- Ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi;
- Zamonaviy kompetensiyalar – ya‘ni muammolarni hal qilish, jamoada ishlash, texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. [6; 234,242-b]

### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich ta‘limda zamonaviy, innovatsion yondashuvlardan foydalanish o‘quvchilarning intellektual, ijtimoiy va ijodiy

salohiyatini har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunday yondashuvlar orqali ta'lim jarayoni yanada samarali, interaktiv va o'quvchi uchun qiziqarli shaklga kiradi. Natijada, o'quvchilar nafaqat bilim oladilar, balki mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish va hamkorlikda ishlash kabi zarur ko'nikmalarni ham egallaydilar.

Bu esa ta'lim sifatining oshishiga, va eng asosiysi, jamiyat ehtiyojlariga javob bera oladigan, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalash imkonini beradi. Shu bois, har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi yangicha metodlarni chuqur o'rganishi, ularni o'z pedagogik amaliyotiga to'g'ri va samarali joriy qila olishi muhim hisoblanadi. Faqatgina doimiy izlanish va yangilikka intilishgina pedagogik faoliyatda yuksak natijalarni kafolatlaydi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Yo'ldoshev. J.G'. Usmonov.S. Ilg'or pedagogik texnologiyalar.- T.: O'qituvchi, 2004. 234-238
2. Jo'rayev R.H., Zunnunov A. Ta'lim jarayonida o'quv fanlarini integratsiyalashtirish omillari. O'qituvchilar uchun o'quv qo'llanma. -T.: Sharq, 2005. 456-462
3. Ibragimov R. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilish faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari. Ped.fan.doktori ilmiy darajasi olish uchun yozilgan avtoreferati. - T.: 2005 765-772
4. Jumaev M.E., Yuldasheva M.Yu., Mingbaeva B.U., Mamatova G.A., Levkina M.F. Boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitish metodikasi., Toshkent 2017. 345-358
5. Amonov M. “Innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish” o'quv qo'llanma . Sharq. 2021. 345-348
6. Jamoliddinova D, Meliboyeva S “Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya, integratsiyasi”. Atayeva N, Rsulova F, Hasanov S “Umumiy pedagogika”. Toshkent. 234-242
7. Akaboyeva D, Akaboyeva A, Davirova N, “Boshlang'ich ta'limda innovatsion texnologiyalarni qo'llash usullari”. T.: 567- 572